

AMALGAMALAR.TARKIBI VA XUSUSIYATLARI

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi I-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada amalgama plombalari, ularning tarkibi, xossalari va klinik qo'llanish sohalari yoritilgan. Amalgamalarning fizik-kimyoviy barqarorligi, chidamliligi hamda iqtisodiy jihatdan qulayligi tufayli tishlarni tiklashda ishlatiladigan materiallardan biri. Amalgamalarning afzalliklari va kamchiligi, qo'llash texnologiyasi, xavfsizlik talablari hamda zamonaviy kompozit materiallar bilan solishtirilishi haqida ma'lumot beriladi. Material stomatologik amaliyotda to'g'ri tanlov qilish va klinik natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: amalgama, simob qotishmasi, kumush amalgama, materiallar, qotishma

Stomatologik amalgama-bu simob qotishmasini kumush-qo'rg'oshin qotishmasidan ($Ag*Sn$) bilan qotishma hisoblanadi. Amalgamali qotishma-bu kumush qo'rg'oshinli, unga turli miqdordagi mis (Cu) va oz miqdorda bo'lgan ruh (Zn) qo'shiladi. Kam miqdordagi misli amalgamali qotishmalar tarkibida 2% mis tutadi. Kam miqdordagi misli tipik zamonaviy amalgama 69,4% Ag , 26,2% Sn , 3,6% Cu va 0,8% Zn tarkib topgan bo'lishi mumkin. Bunday tarkibli qotishmali past miqdorli misli, ko'pincha oddiy amalgamalar deyiladi. Yuqori miqdordagi amalgamali qotishmalar tarkibida 12 dan 30% gacha mis bo'ladi, shunga ko'ra ular kam miqdordagi misli amalgamalarga nisbatan karroziyaga turg'unligi juda yaxshi. Yuqori tarkibli tipik amalgama Ag 60%, 20% Sn , 13% Cu va 0% Zn iborat bo'lishi mumkin. Qo'llashdan oldin amalgamali qotishmani simob bilan qo'shiladi, uning komponentlari bir necha soniyada puxta qoriladi, keyin olingan plastmass massani charxlangan sohaga qo'yiladi, ortiqcha simobni olib tashlash uchun uni kondersirlanadi. Bundan keyin qorishmaga kerakli shakl beriladi, qotgandan keyin

polirlanadi.

Misli amalgama-tarkibida kumush, qalay va simobdan tashqari qo'shimcha sifatida mis (Cu) bo'lgan qotishma. Unda misning miqdori odatda 6-30% atrofida bo'ladi. Mis qo'shilishi amalgamaning fizik xossalarini yaxshilaydi, korroziya va sinishga qarshi barqarorligini oshiradi. Misli amalgamaning ijobiy xususiyatlari: mustahkamligi yuqori, kengayish va qisqarishi kam, korroziyaga chidamli, tez va oson ishlanadi, narxi arzonroq, namlikka chidamli, Misli amalgamalarning salbiy xususiyatlari: estetik emas, simob mavjudligi, termik o'tkazuvchanlik yuqori. Misli amalgamalarning qo'llashiga ko'rsatmalar: orqa tishlar(molyar va premolyar) kuchli chaynash yuklamasi bo'lgan joylar, katta karies kovaklarida da qo'yiladi; Old tishlarga qo'yilishga va simobga aallergiya bo'lganda tavsiya etilmaydi.

Kumushli amalgamalar. "Klassik" kumushli amalgama o'z tarkibiga quyidagi qotishmalrni oladi: Ag 65-66%, Sn 29-32%, Cu 2-6%, Zn 1% gacha. Bu qotishma simob bilan aralashgan holda bo'ladi. Amalgama tarkibidagi har xil component o'zida salbiy va ijobiy xususiyatlarni saqlaydi. Kumush plombani mustahkamligini ta'minlaydi, amalgamani oquvchanligimi kamaytiradi, bo'shliqda kengayish qobilyatiga ega, korroziyaga chidamliligini oshiradi. Qalay qotish jarayonini sekinlashtiradi, kirish xususiyatini oshiradi, qattiqligini va mustahkamligini pasaytiradi, qotishmaning amalgamalashish jarayonini tezlashtiradi. Mis qattiqligini kamaytiradi. Plombani bo'shliq qirg'oqlariga yaxshi yopishishini ta'minlaydi, amalgama tayyorlashda bir xil massa hosil bo'lishini ta'minlaydi. Rux ishlash jarayonini yaxshilaydi, oksid hosil bo'lishini oldini oladi, amalgama amalgama mo'rtligini kamaytiradi, plastikligini yaxshilaydi. Kumushli amalgamalarning ijobiy xususiyatlari: qattiqligi va mustahkamligi yuqori, plastic, og'iz suyuqligiga turg'un, tish qattiq to'qimasini rangini o'zgartirmaydi, yaxshi manipulyatsiyali sifat, bir muncha arzon, yaxshi silliqalanadi. Kumushli amalgamalarnin salbiy xususiyatlari: tis qattiq to'qimasiga adgeziyasi kamligi, plombani yuqori issiqlik o'tkazuvchanligi tufayli pulpani zararlaydi, hajmini o'zgarishi, rangini tish rangiga o'xshamasligi, stomatologik xonani simob bug'lari bilan zaharlanishi. Kumushli amalgamalarning qo'llanishiga ko'rsatmalar: 1 sinf

kovakni plombalashda, 2 sinf kovakni plombalashda, 5 sinf karioz kovakni plombalashda. Kumushli amalgamani qo'llanishiga qarshi ko'rsatmalar: amalgamaga nisbatan allergiyani bo'lishi yoki sezgirligini oshishi, kasbiy zararli sharoitlarda ishlayotgan bemorning simob bilan surunkali intoksikatsiyasi, og'iz bo'shlig'idagi oltindan tayyorlangan protezlar, po'lat va boshqa metallardan tayyorlangan protezlar bilan bevosita ta'siri, davolash muassasalarida amalgamalar bilan ishlash sharoitini yo'qligi.

Xulosa

Amalgamalar uzoq yillar davomida tishlarni tiklashda asosiy plombalovchi material bo'lib kelgan bo'lsada, hozirgi kunda uning qo'llanishi ancha kamaygan. Bunga materialning estetik talablariga javob bermasligi, simob mavjudligi tufayli xavfsizlik cheklavlari va zamonaviy kompozit plombalarning keng tarqalishi sabab bo'lmoqda. Shunga qaramay, yuklama katta bo'lgan orqa tishlarda va iqtisodiy jihatdan qulay variant sifatida amalgama hali ham ma'lum ahamiyatga ega. Umuman olganda, stomatologiya amaliyotda material tanlashda bemorning holati, klinik sharoit va xavfsizlik talablari hisobga ilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Preklinik restavratsion stomatologiya. Toshkent2022
2. Tish texnikasi materialshunosligi. H.Rahmonov.
3. Stomatologiya kursi qo'llanma. U.A.Shukurova. S.X.Yusupalixodjayeva.